

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILIDA FONETIKA VA FONOLOGIYANING O'RGANILISHI HAMDA FONOLOGIK PARADIGMANING YUZAGA KELISHI

Rajabov Shohrux Shavkat o'g'li

Termiz State University student shohruxrajabov200520@gmail.com

Ergasheva D

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fonetika va fonologiyaning o'ganish manbasi, predmeti, maqsad va vazifalari, shu bilan birgalikda, fonologik paradigma haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Fonema, fonologiya, fonetika, nutq, tovushi, variant, invariant, paradigma, oppozitsiya.*

Fonetika ham, fonologiya ham tilshunoslikning bo'limlaridan hisoblanadi. XX asr boshlarigacha fonetika va fonologiya bitta tushuncha sifatida o'rganilib kelingan. XIX asr oxirlariga kelib nutq tovushlarining fizik tomonidan lingvistik tomonini farqlash ehtiyoji paydo bo'la boshladi. Shu tariqa tilning lingvistik tomonini o'rganuvchi soha fonologiya paydo bo'ldi.

Ana shu davrdan boshlab zamonaviy tilshunoslik ham shakllandi. Tilshunos olimlar tomonidan fonetika va fonologiya bo'limlarining maqsad va vazifalari, birliklari, ular orasidagi tafovutlar qiyosiy metodlar asosida o'rganildi. Dastlab fonetikaning birligi bo'lgan nutq tovushlari va fonologiyaning birligi fonemaning bir-biridan farqli tomonlari, o'zaro bog'liqligi, til tizimidagi o'rni va ahamiyati bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi. Bunda Yevropa tilshunoslarining erishgan yutuqlari tahsinga sazovordir.

Masalan, tilning tovush tomonini lingvistik nuqtai nazardan o'ganishni birinchi bo'lib nemis olimi E. Zivers "Tovush fiziologiyasi asoslari" va "Fonetika asoslari" asarlari orqali boshlab berdi. Rus olimlaridan I. A. Boduen de Kurtene, L. V. Shcherba, V. A. Bogoroditskiylar esa umumiy fonetikaning rivojiga katta hissa qo'shishgan. XX asrning 20-30-yillarida rus olimlaridan N. S. Trubetskoy, S. O. Yakobsonlar esa fonologiyaning asoslarini yaratdilar. Keyinchalik shved tilshunosi F. de Sossyur bilan rus tilshunosi B. de Kurtenelar ilk marta fonema atamasi va uning prinsip (asos) larini ishlab chiqdilar. Keyingi davrlarda esa fonologiya fonetika singari umumiy fonologiya, xususiy fonologiya, diaxron (tarixiy) fonologiya va sinxron (tasviriy) fonologiya kabi ichki guruhlariga ajratilib o'rganildi.

Fonetika tilning tovushlar tizimini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi bo'lib, uning birligi nutq a'zolari yordamida hosil bo'lgan nutq tovushlari hisoblanadi. Fonetika deganda eng quyi lisoniy sath ham, tilshunoslikning shu sathni o'rganadigan sohasi ham tushuniladi. Fonetika (gr. *phonetikos* – tovushga, ovozga xos) tilshunoslikning boshqa sohalaridan farqli o'laroq, nafaqat o'rganish manbaining funksional tomonini, balki nutq tovushini hosil qiluvchi talaffuz apparatini, shuningdek, ularning akustik

xossasini va til egalari tomonidan qabul qilinish jihatlarini ham tekshiradi¹³. Fonetikaning birligi safatida namoyon bo'ladigan tovushlar nutqning eng kichik va boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydigan qismi sanaladi. Fonologiyaning birligi bo'lgan fonema esa tilning eng kichik va boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydigan qismi sifatida o'rganiladi. Ana shu xususiyatiga ko'ra bu ikki bo'lim bir-biridan farqlanadi. Shuningdek, fonetikaning o'rganish obyektida tovush o'zgarishlari, bo'gin, urg'u, intonatsiya (ohang), pauza (to'xtam) kabi lingvistik tushunchalar ham mavjud.

Fonetika o'rganish obyekting hajmiga ko'ra umumiy fonetika, xususiy fonetik kabi turlarga ajratilib tasnif qilinadi. Bunda har bir tur o'ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Masalan, umumiy fonetikada dunyodagi barcha tillardagi tovushlar tizimi, nutq apparati, fonetik hodisalar talqin qilinadi. Xususiy fonetikaning esa umumiy fonetikaga qaraganda imkoniyati cheklangan, ya'ni muayyan bir tilning tovush tomoni bilan shug'ullanadi, shuning uchun umumiy fonetika xususiy fonetikaga tayyangan holda ish olib boradi. Xususiy fonetika o'z navbatida yana quyidagi guruhlariga: tavsifiy, tarixiy, qiyosiy va eksperimental fonetikaga bo'linadi. Bu tilning tarixiy kelib chiqishi va qay tarzda o'rganilishi bilan bog'liq. Qiyosiy fonetikada bir-biriga qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan ikki va undan ortiq tillarning fonetik tizimidagi o'xshash va farqli tomonlari aniqlanadi. Misol uchun, rus va ingliz tillari yoki o'zbek va rus tillarining tovush tomoni, ular bilan bog'liq jarayonlarni bir-biriga qiyoslab o'rganishni keltirish mumkin. Eksperimental fonetikaga keladigan bo'lsak, unda fonetik birlik va hodisalar maxsus asboblardan yordamida aniqlanadi va nazariy qoidalar ishlab chiqiladi.

Fonetik birliklar so'z va qo'shimchalarning shakliy va mazmuniy tomonini hosil qiladi. Masalan, nutq tovushlari va bo'gin moddiy tomonning shakllanishiga xizmat qilsa, ohang, urg'u va pauza qo'shimcha, so'z, gap hamda matnning mazmuniy tomoniga aloqador birliklardir. Shunga binoan fonetik birliklar segment (ing. "qism, bo'lak") va ustsegment birliklarga bo'linadi.

Fonologiya tilshunoslikning zamonaviy bo'limlaridan biri hisoblanib, unda ma'no farqlash vazifasini bajaradigan fonemalar o'rganiladi. Fonema bu falsaviy birlik sanalgan UMIS tabiatiga ega atama bo'lib, o'zida umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab kategoriyalarini ifodalaydi hamda lisoniy birlik sifatida vujudga keladi. Fonologiya (gr. phone – tovush, logos – ta'limot) termini tilshunoslikda XIX asr oxirida nutq tovushining fiziologik-akustik (fizik) tomonidan funksional (lingvistik) tomonini farqlash ehtiyoji bilan paydo bo'ldi. Fonologiya til tovush qurilishining struktur va funksional qonuniyatini o'rganuvchi soha, semiotik (ishoraviy) tizim sifatida nutqni akustik-artikulyatsion aspektida o'rganadigan fonetikadan farqlanadi.¹⁴

Fonema - bu ma'no farqlovchi tovush. Masalan: ber, bor, bir, bo'r, ber, bur so'zlaridagi ma'no farqlayotgan tovushlar unli fonemalardir. Ular inson tasavvurida biror-bir tovushning obrazi tarzida yashaydi. Fonemaning real talaffuz qilingan, quloqqa eshitilgan ko'rinishi tovush deyiladi. Tovush va fonemaning asosiy

¹³ R.R.Sayfullayev, B.R.Mengliyev, M.M.Qurbonova, L.R.Raupova, M.Q.Abuzaalova, D.N.Yo'ldosheva "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent 2023

¹⁴ R.R.Sayfullayev, B.R.Mengliyev, M.M.Qurbonova, L.R.Raupova, M.Q.Abuzaalova, D.N.Yo'ldosheva "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent 2023

farqi ma'no farqlashidadir. Istalgan fonema tovush hosil qilishi mumkin, ammo har qanday tovush ma'no farqlash vazifasini bajara olmaydi. M: kitob so'zidagi tovushlar ma'no farqlash xususiyatiga ega emas.

Fonemalar umumiy (o'xshash) va integral (farqli) xususiyatlarga ega, shuning uchun fonemalar orasida paradigmatic munosabatlar bor deb qaraladi. O'zbek tilidagi fonemalarni ikki guruhga ajratish mumkin: unli fonemalar va undosh fonemalar. O'z navbatida, ularni unli fonemalar paradigmasi hamda undosh fonemalar paradigmasi sifatida ham o'rganish mumkin. Masalan, unli fonemalarning umumiy belgisi "o'pkadan chiqayotgan havoning hech qanday to'siqqa uchramasligi natijasida paydo bo'lishi" bo'lsa, farqli belgisi "old qator yoki orqa qator", "yuqori tor, o'rta keng va quyi keng", "lablangan-lablanmagan"ligidir. Masalan: a, o, i, u, e, o' fonemalaridan: i, u – yuqori tor; e, o' – o'rta keng; a, o – quyi keng. Undosh fonemalarning umumiy belgisi esa "havo oqimining to'siqqa uchrashi natijasida paydo bo'lishi" hisoblansa, ularning farqli jihati "ovoz va shovqinning ishtirokiga, hosil bo'lish o'rniga, usuliga ko'ra tasniflanishi" sanaladi. M: d, v, z, b, g, j, g', y, m, n, ng, l, r – jarangli fonemalar; t, f, s, p, sh, ch, k, x, q, h – jarangsiz fonemalar; d, t, b, p, ch, j, m, n, ng, k, g, q, v – portlovchi fonemalar; s, z, f, sh, y, x, h, l, r, dj, g' – sirg'aluvchi fonemalar; d, t, s, z, sh, ch, l, r, n, dj, j – til oldi fonemalari; y – til o'rta fonemasi; g, k, ng – til orqa fonemalari; q, g', x – chuqur til orqa fonemalari; h – bo'g'iz fonemasi; b, p, m, v, f – lab fonemalari. Paradigmada farqlovchi belgilar korrelyativ belgilar ham deyiladi. Bu korrelyativ xossalar paradigmatic munosabatlarning markazida oppozitsiya (ziddiyat) turishini bildiradi. Yuqoridagi fonemalarning paradigmatic munosabati asosini fonologik ziddiyat tashkil qilgan. Ziddiyat bu barcha lisoniy birliklarning yashovchanligini ta'minlovchi vositadir. Agarda o'zaro munosabatga kirishayotgan birliklar orasida ziddiyat, farq qiluvchi belgi, bo'lmasa, bu a'zolar paradigmatic munosabatga kirisha olmaydi. Tilshunoslikda rus olimi N.S.Trubetskoy o'zining "Fonologiya asoslari" asarida fonologik paradigmani tashkil qiluvchi fonologik ziddiyatni quyidagicha tasnif qiladi:

1. Fonologik ziddiyatning ziddiyat tizimiga munosabatiga ko'ra tasnifi. Bu tasnifga ko'ra fonologik ziddiyat bir o'lchamli, ko'p o'lchamli, ajratilgan va muntazam ziddiyatlarga ajratilgan.

2. A'zolar o'rtasidagi munosabatga ko'ra ziddiyat tasnifi. Bunda fonologik ziddiyat noto'liq, darajali va teng qiymatli ziddiyatlarga bo'linadi. Masalan, noto'liq ziddiyat faqatgina ikkita a'zodan iborat bo'lib, ulardan biri aniq belgiga ega bo'ladi, ikkinchisi esa betaraf, noaniq, belgini ifodalaydi: "olma va meva" munosabati noto'liq ziddiyatdir. Darajali ziddiyatda a'zolar kamida uchta bo'lib, a'zolar darajalanish xususiyatiga ega bo'ladi, ya'ni ikkinchi a'zo birinchi a'zodan kuchliroq, uchinchi a'zo esa ikkinchi a'zodan kuchliroq bo'lishi yoki aksincha ham bo'lishi mumkin. Bunga unli fonemalar paradigmasining tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra tasnifini (yuqori tor (i, u) – o'rta keng (e, o') – quyi keng (a, o)) yoki bo'lmasa so'zlarning ma'noviy tomondan darajalanishini (iliq-issiq-qaynoq; achinmoq-afsuslanmoq-kuyinmoq-o'kinmoq; bobo-ota-bola-nabira-chevara-evara-duvara ...) , sifat so'z turkumi darajalarini (picha

chiroyli-chiroyliroq-chiroyli-juda chiroyli; ko`kintir-ko`kroq-ko`k- ko`m-ko`k ) keltirish mumkin. Teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyatda esa noto`liq ziddiyatdagi kabi ikkita a'zo bo`lib, ularning har biri o`ziga xos belgiga ega bo`ladi. Bu ziddiyatga jarangli va jarangsiz fonemalar ziddiyatini, unli va undosh fonemalar ziddiyatini misol qilish mumkin.

3. Barqarorlik darajasiga ko`ra zidlanish barqaror va barqaror bo`lmagan turga bo`linadi. Masalan, i va o` fonemalari o`rtasidagi ziddiyatning o`xshash xossasi "unli fonema"ligi, farqli belgisi esa "old qator-orqa qator"ligidir. Ammo nutqiy vaziyatda i fonemasi chuqur til orqa undosh fonemalar (q, g, x) bilan birga kelganda i old qator fonemasi orqa qator fonemasi tarzida namoyon bo`ladi. Taqqoslang: ilon – qiliq, iroda – g`irt, inson – xirilla). Biroq ular orasidagi ziddiyat yo`qolmaydi, faqatgina kuchsizlanadi xolos. Bu barqaror ziddiyat deyiladi.

Barqaror bo`lmagan ziddiyatning neytrallashtirmagan holatini ta'minlovchi fonetik pozitsiya - kuchli pozitsiya. Masalan, b fonemasi so`z boshida jarangsizlashmaydi va bu pozitsiyada uning p fonemasiga zidligi saqlanadi. Bu kuchli pozitsiyadir. Neytrallanish, so`nishga olib keluvchi pozitsiyadir. Demak, bunday pozitsiyadagi ziddiyat barqaror bo`lmagan ziddiyat deyiladi. Unli va undosh orasidagi qarama-qarshilik barqaror ziddiyatga misol bo`la oladi.¹⁵

Birinchidan, fonetika bo`limining o`rganish obyekting hajmiga ko`ra turlari, jumladan, umumiy, xususiy hamda tavsifiy, tarixiy, qiyosiy, eksperimental fonetika, shuningdek, nutq tovushlari, ular bilan bog`liq jarayonlar, bo`g`in, urg`u, ohang, to`xtam yuzasidan qisqacha ma'lumotlar berildi, misollar yordamida tushuntirilib o`tiladi. Ikkinchidan, fonetika va fonologiyaning bir-biridan farqli tomonlari, birliklari, tilning qaysi tomonini o`rganishi jihatdan tafovuti, har ikkalasining o`rganish manbai va predmetlari, tarkibiy qismlari, fandagi o`rni va ahamiyati haqida to`xtalib o`tiladi. Uchinchidan esa, nutq tovushlari va fonema falsafiy tushuncha bo`lgan UMIS va AHVO ga tayangan holda o`zaro taqqoslandi. Bundan tashqari, fonologik paradigma hamda fonologik ziddiyatning o`zaro chambarchas bog`liqligi aniq dalil va misollar bilan ochib berildi. Eng asosiysi mashhur olimlar tomonidan qilingan tadqiqot ishlari, fonetika va fonologiyaga doir asarlari haqida ham ma'lumotlar berib o`tiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. R.R. Sayfullayev, B.R. Mengliyev, M.M. Qurbonova, L.R. Raupova, M.Q. Abuzalova, D.N. Yo`ldosheva "Hozirgi o`zbek tili" Toshkent 2023
2. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. O`quv qo`llanmasi. – Qarshi: Nasaf, 2005.
3. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – T.: O`qituvchi, 1993

¹⁵ R.R. Sayfullayev, B.R. Mengliyev, M.M. Qurbonova, L.R. Raupova, M.Q. Abuzalova, D.N. Yo`ldosheva "Hozirgi o`zbek tili" Toshkent 2023

4.Nurmanov A. O`zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – T: O`qituvchi, 1992.